



## 2019 yil yanvar-iyun oyida Farg`ona viloyatining sanoat ishlab chiqarishi


### RAQAMLAR:

- Sanoat ishlab chiqarish hajmi **9307,7** mlrd.so`mni, sanoat ishlab chiqarish indeksi **106,8%** ni tashkil etdi
- Iste`mol tovarlari ishlab chiqarishning o`shish sur`ati **-8,5 %**
- Iste`mol tovarlarining jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi **- 31,1 %**
- Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi **- 39,8 %**
- Faoliyat ko`rsatayotgan sanoat korxonalarini soni **-7291** birlikni tashkil etdi.

Dastlabki ma`lumotlar bo`yicha 2019 yilning yanvar-iyun oylarida viloyat korxonalarini tomonidan 9307,7 mlrd.so`mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo`lib, o`tgan yilning tegishli davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarish indeksi 106,8 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o`shishining asosiy omili bo`lib, tog`- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash **- 133,9 %** ga, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoat **- 106,1%**, elektr, gaz, bug` bilan ta`minlash va havoni kondititsiyalash **- 122,2 %** ga va suv bilan ta`minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishning **- 119,8 %** ga o`shishi hisoblanadi.

## 2019 yilning yanvar-iyun oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi, foizda, jami sanoatdagi ulushi.



### Tog`- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash.



Tog`-kon sanoatida tog`-kon sanoati bilan bog`liq boshqa faoliyat turi hajmi o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan – 27,1 % ga oshganligini kuzatish mumkin.

Tog`- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 28,5 mlrd.so`mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,3 % ni tashkil etdi.



### Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati).

2019 yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 8763,0 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 94,1 % ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmog`ining hajmi -8,5 mlrd.so`mni, (ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi-0,1%), o`rta yuqori texnologiyali – 1259,3 mlrd.so`mni, (13,5 %), o`rta quyi texnologiyali – 2730,7 mlrd.so`mni, (29,3%) va quyi texnologiyali – 4764,4 mlrd.so`mni, (51,2%) tashkil etdi.

### Yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo`yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi



**Yuqori texnologiyali tarmog`i ishlab chiqarish hajmi- 8,5 mlrd.so`m, ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi-0,1%**



**O`rta yuqori texnologiyali tarmog`i ishlab chiqarish hajmi - 1259,3 mlrd.so`m, ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi-13,5 %**



**O`rta quyi texnologiyali tarmog`i ishlab chiqarish hajmi - 2730,7 mlrd.so`m, ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi-29,3 %**





**Quyi texnologiyali tarmog`i ishlab chiqarish hajmi - 4764,4 mlrd.so`m, ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi-51,2%**



O'z navbatida, sanoatning mazkur tarmog'ida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 3,2 % ga, to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish 0,2 % ga, terini qayta ishlash 1,0 % ga, rezina va plastmassa buyumlari ishlab chiqarish 0,1 % ga, yog'och va po'kak buyumlar (mebeldan tashqari) ishlab chiqarish 1,1% ga, kimyo mahsulotlarini ishlab chiqarish 1,2 % ga oshganligini, qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarish esa 0,1 % ga, mebel ishlab chiqarish 0,1 % ga, avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish 0,3 % ga pasayganligini kuzatish mumkin.

**Yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

2018 yilda ishlab chiqarilgan	Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari	2019 yilda ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, foizda
3079,3	<p><b>Gerbitsid, tonna</b></p> 	3547,7	115,2
784	<p><b>Avtotransport oynalari, tonna</b></p> 	1306,0	166,6




2018 yilda ishlab chiqarilgan	Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari	2019 yilda ishlab chiqarilgan	O`shish sur`ati, foizda
370630	Sement klinkerlari, tonna 	417942	112,8
18,0	Tabiiy oq va qizil desert uzum vinolari, ming litr. 	25,0	138,9
69,8	Amoniy nitrat, ming t. azot 	88,8	127,2
8,5	Superfosfat ming t. P2O5 	11,4	130,1
404,4	Portlandsement, ming t. 	493,3	122,0
49,4	Shisha idishlar, mln dona. 	47,5	109,5

### Elektr, gaz, bug` bilan ta`minlash va havoni kondittsiyalash.

Elektr, gaz, bug' bilan ta`minlash va havoni kondittsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 479,2 mlrd. so`mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 5,2 % ni) tashkil etdi.

2019 yilning yanvar-iyun oylarida sanoatning mazkur tarmog`i o'tgan yilning mos davriga nisbatan 122,2 % ni tashkil etdi.



### Suv bilan ta`minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish.



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 37,1 mlrd.so`mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,4 % ni) tashkil etdi.


2019 yilning yanvar-iyun oylarida sanoatning mazkur tarmog`i o'tgan yilning mos davriga nisbatan 119,8 % ni tashkil etdi.



## 2019 yilning yanvar-iyun oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarilishi.

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab- quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 2896,6 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2018 yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 8,5 % ga o'sishi ta'minladi, jami sanoatdagi ulushi esa 31,1 % ni tashkil etdi.

### 2019 yilning yanvar-iyun oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari




### **Hududlarning sanoat ishlab chiqarishi.**


Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Farg'ona shahar (viloyat ishlab chiqarish hajmining 37,1 % ulushini), Qo`qon shahar (viloyat ishlab chiqarish hajmining 15% ulushini), Quvasoy shahar (viloyat ishlab chiqarish hajmining 5,5% ulushini), Marg`ilon shahar (viloyat ishlab chiqarish hajmining 3,7% ulushini), Toshloq tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 10,7 % ulushini), Dang`ara tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 4,4% ulushini), O`zbekiston tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 2,3 % ulushini), Quva tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 4,2% ulushini), Buvayda tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 2,0% ulushini), Beshariq tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 2,3% ulushini), Bog`dod tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 2,3% ulushini), Oltiariq tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 2,2% ulushini), Farg`ona tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 1,5% ulushini), Rishton tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 2,0% ulushini), Uchko`prik tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 1,2% ulushini), Qo`shtepa tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 1,2 % ulushini), Yozyovon tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 1,3% ulushini), So`x tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 0,6% ulushini), Furqat tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 0,6% ulushini) hissasiga to`g`ri kelmoqda.



## 2019 yil yanvar-iyun oyida hududlar bo'yicha sanoat ishlab chiqarilishining ulushi, foizda




### 2019 yil yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha sanoat ishlab chiqarilishining hajmlari va viloyatdagi ulushi, %



### Hududlarning iste'mol tovarlari ishlab chiqarishi.

Viloyat iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi Farg'ona shahar 502,8 mlrd.so'm, Qo`qon shahar 610,0 mlrd.so'm, Quvasoy shahar 153,0 mlrd.so'm, Marg`ilon shahar 229,0 mlrd.so'm, Toshloq tumani 154,9 mlrd.so'm, Dang`ara tumani 93,8 mlrd.so'm, O`zbekiston tumani 120,9 mlrd.so'm, Quva tumani 109,2 mlrd.so'm, Buvayda tumani 67,0 mlrd.so'm, Beshariq tumani 132,0 mlrd.so'm, Bog`dod tumani 122,8 mlrd.so'm, Oltiariq tumanlari 109,3 mlrd.so'm, Farg`ona tumani 86,3 mlrd.so'm, Rishton tumani 120,4 mlrd.so'm, Yozyovon tumani 54,9 mlrd.so'm, Qo`shtepa tumani 69,0 mlrd.so'm, So`x tumani 27,4 mlrd.so'm, Uchko`prik tumani 102,1 mlrd.so'm, Furqat tumani 31,8 mlrd.so'mga, to`g`ri keldi.

### Shahar va tumanlarning iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va ulushi



**Farg`ona viloyatining 2019 yil yanvar-iyun oylarida sanoat mahsulotlari hamda xalq iste`mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi**


№	Shaharlar va tumanlar nomi	2019 yil yanvar-iyun chiqarilishi		2019 yil yanvar-iyun aholi jon boshiga	2019 yil yanvar-iyun xalq iste`mol tovarlari		2019 yil yanvar-iyun aholi jon boshiga
		mlrd.so`m	ulushi, %	ming.so`m	mlrd.so`m	ulushi, %	ming.so`m
1	Oltiariq t.	202,3	2,2	975,2	109,3	3,8	526,9
2	Qo`shtepa t.	111,5	1,2	598,3	69,0	2,4	370,4
3	Bog`dod t.	214,6	2,3	1 018,4	122,8	4,2	582,8
4	Buvayda t.	189,8	2,0	850,4	67,0	2,3	300,1
5	Beshariq t.	211,6	2,3	945,3	132,0	4,6	589,5
6	Quva t.	393,0	4,2	1 550,9	109,2	3,8	430,9
7	Uchko`prik t.	112,0	1,2	500,0	102,1	3,5	455,7
8	Rishton t.	186,4	2,0	940,7	120,4	4,2	607,3
9	So`x t.	58,4	0,6	764,7	27,4	0,9	358,9
10	Toshloq t.	998,6	10,7	5 044,1	154,9	5,3	782,5
11	O`zbekiston t.	215,5	2,3	920,3	120,9	4,2	516,2
12	Farg`ona t.	134,9	1,5	645,5	86,3	3,0	413,0
13	Dang`ara t.	404,6	4,4	2 380,0	93,8	3,2	551,9
14	Furqat t.	55,9	0,6	482,3	31,8	1,1	274,2
15	Yozyovon t.	118,6	1,3	1 095,3	54,9	1,9	506,9
16	Farg`ona sh.	3 453,8	37,1	12 118,4	502,9	17,4	1764,6
17	Qo`qon sh.	1 396,6	15,0	5 594,5	610,0	21,1	2443,6
18	Quvasoy sh.	506,8	5,5	5 508,7	153,0	5,3	1663,3
19	Marg`ilon sh.	342,8	3,7	1 477,9	229,0	7,9	987,1
<b>Viloyat bo`yicha</b>		<b>9307,7</b>	<b>100,0</b>	<b>2517,5</b>	<b>2896,6</b>	<b>100,0</b>	<b>783,5</b>



## Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi.

Kichik tadbirkorlik sub'ektlari sanoat ishlab chiqarishda keskin faollashgani natijasida kichik biznesning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 39,8% tashkil etmoqda.

### 2019 yilning yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha yirik korxonalar va kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi, %




### **Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari.**

Bugungi kunda viloyatda 7291 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, ulardan 1282 tasi Qo`qon shahri, 882 tasi Marg`ilon shahri, 921 tasi Farg`ona shahri, 536 tasi Uchko`prik tumani, 434 tasi O`zbekiston tumani, 379 tasi Dang`ara tumani, 377 tasi Buvayda tumani, 280 tasi Toshloq tumani, 323 tasi Quva tumani, 258 tasi Bog`dod tumani, 264 tasi Oltiariq tumani, 213 tasi Qo`shtepa tumani, 221 tasi Rishton tumani, 195 tasi Farg`ona tumani, 186 tasi Quvasoy shahri, 142 tasi Yozyovon tumani, 144 tasi Furqat tumani, 130 tasi Beshariq tumani, 124 tasi So`x tumaniga to`g`ri keladi.

Joriy yilning yanvar-iyun oylarida viloyatda 1163 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etilgan bo'lib, ulardan 110 tasi Qo`qon shahri, 86 tasi Marg`ilon shahri, 136 tasi Farg`ona shahri, 89 tasi Uchko`prik tumani, 66 tasi O`zbekiston tumani, 58 tasi Dang`ara tumani, 84 tasi Buvayda tumani, 43 tasi Toshloq tumani, 107 tasi Quva tumani, 51 tasi Bog`dod tumani, 65 tasi Oltiariq tumani, 29 tasi Qo`shtepa tumani, 64 tasi Rishton tumani, 49 tasi Farg`ona tumani, 39 tasi Quvasoy shahri, 17 tasi Yozyovon tumani, 26 tasi Furqat tumani, 27 tasi Beshariq tumani, 17 tasi So`x tumaniga to`g`ri keladi.

*Farg`ona viloyatida faoliyat ko`rsatayotgan hamda yanvar-iyun oylari davomida yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni, birlikda*



**Farg`ona viloyat statistika boshqarmasining**

**Sanoat statistikasi bo`limi**

Nashr uchun mas'ul:

I.Ahmedov

Aloqa telefoni:

(0371) 230-87-19